

JAHON TILSHUNOSLIGIDA GRAMMATIK KATEGORIYALAR TADQIQI

Tursunova Durdona G'ulom qizi

Qarshi davlat universiteti filologiya

va tillarni o'qitish (o'zbek) tili 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17173490>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek, turk, fransuz, nemis va boshqa bir qancha tillar misolida har bir Grammatik kategoriyaga misollar keltirilib, jadval ko'rinishida qiyosiy tahlilga tortilgan. Maqola maqsadi dunyo tillari miqyosida Grammatik kategoriyalarni chuqurroq o'rganish va o'zbek tilining ilmiy boyligini oshirish.

Kalit so'zlar: kategoriya, Grammatik kategoriya, rod, son, egalik, kelishik, nisbat.

Аннотация: В данной статье на примере узбекского, турецкого, французского, немецкого и ряда других языков приведены примеры каждой грамматической категории и проведён сравнительный анализ в табличной форме. Цель статьи — более глубокое изучение грамматических категорий в масштабе мировых языков и обогащение научного потенциала узбекского языка.

Ключевые слова: категория, грамматическая категория, род, число, принадлежность, падеж, залог.

Abstract: This article provides examples of each grammatical category based on Uzbek, Turkish, French, German, and several other languages, and presents a comparative analysis in tabular form. The aim of the article is to study grammatical categories more deeply on a global scale and to enrich the scientific potential of the Uzbek language.

Keywords: category, grammatical category, gender, number, possessive, case, voice

Kategoriya termini tilshunoslikda keng qamrovga ega tushuncha bo'lib, bir mavzuning ma'no va chegaralarini, tuzilish va imkoniyatlarini belgilaydigan, ma'lum fan doirasida qo'llaniladigan va foydalaniladigan maxsus birliklar, turlar, ko'rsatkichlar, o'zining ichki ma'nolariga ega bo'lgan bo'limlarni birlashtiradigan tushunchadir.

Grammatik kategoriya esa tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganiladigan munozarali masalalardan biridir. Grammatik kategoriya nafaqat o'zbek tilshunosligida balki jahon miqyosida ken qamrovga ega bo'lgan tushunchadir. Har bir til o'zining grammatik tuzilishi va lug'at boyligiga, shu tushunchalarga oid tuzilish va sistemasiga, birbirini taqozo etadigan guruhlarga, kategoriyalarga, belgilar tizimiga ega. Quyida bir nechta til misolida ba'zi grammatik kategoriyalarning mavjud yoki mavjud emasligi yoki bo'lsa ham, qaysi jihatiga ko'ra o'rganilishiga doir masalalar jadval va ma'lumot ko'rinishida ko'rinishida ochib berilgan:

Tillar	Rod	Son	Egalik	Kelishik	Nisbat
O'zbek	–	+	+	+	+
Turk	–	+	+	+	+
Fransuz	+	+	–	–	–
Ingliz	–	+	–	–	–
Nemis	+	+	–	+	–

Rod kategoriyasi. Rod kategoriyasi til strukturasida so'zlarning jinsini belgilashda ishlatiladigan kategoriyadir. O'zbek va turk kabi turkiy tillarda rod mavjud emas ammo fransuz tilida otlarni rodini ifodalashda so'z boshida keladigan ma'lum artikillardan foydalaniladi.

Shunday ekan har bir otning alohida artikili bor va ular artikilsiz qo'llanilmaydi. *Féminin* (Ayollarga oid rod)da *la / une* artikllaridan foydalaniladi. *Masculin*(erkaklarga oid rod) *le / un* artikllaridan foydalaniladi. Rus tilida *Мужской, Женский, Средний* rodlar farqlansa, Nemis tilida rodlar so'z boshida keladigan *der* (erkaklarga oid), *die* (ayollarga oid), *das* (umumiy rod) kabi artikillar qo'llaniladi: *Der Baum* – daraxt, *Die Puppe* -qo'g'irchoq, *Das Auto* –moshina, *Der Ball*- to'p, *Die Tasche* – sumka, *Das Kind* –bola singari.

Son kategoriyasi: O'zbek, ingliz, fransuz kabi tillarda son kategoriyasi mavjud va u otlar, fe'llar, sifatlar va boshqa so'z turkumlarida grammatik jihatdan ifodalanadi. Xitoy, vyetnam kabi ayrim tillarda son kategoriyasi aniq morfologik shakl orqali ifodalanmaydi. Bu tillarda ko'plikni bildirish uchun qo'shimchalar, so'zning o'ziga xos konteksti yoki boshqa sintaktik elementlar orqali ifodalanadi:

Tillar	Birlik	Ko'plik
O'zbek	Xona	Xonalar
Turk	Oda	Odalar
Fransuz	La chambres	Les chambres

Egalik kategoriyasi. Ko'pchilikda egalik tushunchasi faqat turkiy tillarga xos bo'lgan xususiyat deb qaraladi ammo unday emas, ya'ni egalik kategoriyasi umumiy grammatik tushuncha hisoblanadi va juda ko'p tillarda mavjud bo'lib, turli tillarda turli usullar bilan ifodalanadi.

O'zbek tilida: Mening qalamim, sening qalaming, uning qalami, bizning qalamimiz, sizning qalamingiz, ularning qalami.

Turk tilida: Benim kalemim, senin kalemin, onun kalemi, bizim kalemimiz, sizin kaleminiz, onlari kalemleri.

Fransuz tilida: Fransuz tilida rodlar muhim ahamiyatga ega. **M.r**(Мужской) - **birlik uchun** (shaxs ham narsa ham birlikda bo'lganda): **Mon** crayon - mening qalamim, **Ton** crayon - sening qalaming, **Son** crayon - uning qalami. **J.r.**(Женский) - **birlikda** (narsa ham shaxs ham birlikda bo'lganda):**Ma** robe -mening ko'ylagim,**Ta** robe - sening ko'ylaging ,**Sa** robe - uning ko'ylagi.

Kelishik kategoriyasi.Quyida turk tili misolida barcha kelishiklar (adlar, haller) va ularning har biri uchun misollar keltiriladi. Turk tilida 6 asosiy kelishik mavjud:

1. Yaln hali – Bosh kelishik. M: “Halis **muhabbat**; kavgasiz, gürültüsüz olmaz, derler” Chin **muhabbat**; janjalsiz, shovqinsiz bo'lmaydi deyishadi.

2. Belirtme hali- Tushum kelishigi. M: “Doğrusunu söylemek lâzım gelirse, manzara hiç de zengin değildi” -To'g'risini aytish kerak bo'lsa, manzara hech ham chiroyli emas edi.

3. Yönelme hali -Jo'nalish kelishigi. M: “Bana gelince, ben bambaşka bir çocuktum”-Menga kelsak men boshqacha bola edim.

4. Bulunma hali -O'rin-payt kelishigi M: "Ben, galiba balıklar gibi bir göl içinde doğdum." - Men, benimcha baliqlar kabi ko'l ichida tug'ildim.

5. Ayrılma hali -Chiqish kelishigi. M: “Fakat ben, bu kadarından da memnundum”- Faqatgina men bu taqdirimdan ham mamnun edim.

6. İyelik eki - Qaratqich kelishigi. M: “Saçlarımı yavaş yavaş gözlerimin üzerine indirmeye başladım”-Sochlarimni sekin sekin ko'zlarimning ustiga tushirishni boshladim. (misollar Reşat Nuri Güntekining “Çalıkuşu” asaridan olindi va tarjima qilindi).

Nisbat kategoriyasi. O'zbek tilida *fe'l nisbatlari* deb atalsa, fe'l nisbatlari uchun inglizchada *voice*, Almanchada *diathese*, Fransuzchada *voix*, Ispanyolchada *diátesis* ve *la voz*, terminlari foydalanilar ekan Turk tilida hozirgi kunda fiil çatısı termini ma'qul ko'rilgan. bo'lsa, ba'zi manbaalarda bina, taban, yapı, görünüş, örgü kabi nomlarini ham uchratamiz. O'zbek va turk tilida qiyosiy misollar:

Nisbatlar	Qo'shimchasi	Misollar
1. Aniq nisbat (Etken fiil).	–	<i>Oysha gilos yedi (Ayşe kıraz yedi).</i>
2. Mahjul nisbat (Edilgen fiil)	in(ın, in, un, ün), -n, -il, -l.	Daraxt kesildi (Ağaç kesildi).
3. O'zlik nisbat (Dönüşlü fiil)	in(ın, in, un, ün), -n, -l, -il	<i>Onam kiyindi (Annem giyindi).</i>
4. Birgalik nisbat (İsteş çatı).	ish(ış iş uş üş) -sh, -laş, -leş.	<i>Ular ko'rishdi (Onlar görüştü).</i>
5. Ortirma nisbat (Oldurgan çatı).	Dir, (dır, dur, dür, tır, tir, tur, tür) -t, -r	<i>Do'stimning bu harakati beni juda qo'rqitdi (Arkadaşımın bu hareketi beni çok korkuttu).</i>

Xulosa:

Tadqiqot natijasi grammatik kategoriyalarning turli tillarda shakl va ifoda vositalari bilan farqlanishini, ammo ularning umumiy funksional mohiyati bir xil ekanligini ko'rsatadi. Qiyosiy tahlil o'zbek tilining grammatik tizimini yanada chuqurroq yoritib, nazariy va amaliy tilshunoslik uchun yangi ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Хожиев А. «Ўзбек тили грамматикаси», Тошкент: Ўқитувчи, 2006.
2. Reşat Nuri Güntekin. “Çalığışu”. İstanbul: İnkılap Kitabevi, 2019.
3. Grevisse M. “Le Bon Usage”. Bruxelles: De Boeck Duculot, 2011.
4. Helbig G., Buscha J. “Deutsche Grammatik”. Berlin: Langenscheidt, 2001.